

O‘ZBEK TEXNIK TERMINLARINI STANDARTLASHTIRISH MEZONLARI

Xashimova Xurshida Djuraxanovna,

University of Business and Science

Til va adabiyot ta'limi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

xurshidaxonxashimova@gmail.com[ORCID ID: 0009-0001-6633-6389](https://orcid.org/0009-0001-6633-6389)DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932180>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek texnik terminologiyasini standartlashtirish masalalari kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda terminlarni me'yorlashtirishning lingvistik mezonlari – aniqlik, qisqalik, milliylik va xalqaro moslik nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, terminologiyada kodifikatsiya jarayonlarining bosqichlari, usullari va ularning zamonaviy elektron resurslar bilan integratsiyasi yoritiladi. Maqolada texnik terminlarni tartibga solishda davlat til siyosatining o'rni, normativ-huquqiy hujjatlar va terminologik komissiyalar faoliyatining ahamiyati tahlil qilinadi. Energetika, informatika, elektrotexnika, mexanika va robototexnika kabi sohalar misolida standartlashtirish tajribasi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari texnik terminologiyani barqaror rivojlantirish, ilmiy-texnik muloqotni takomillashtirish hamda milliy terminologik tizimni xalqaro ilmiy makonga integratsiyalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: terminologiya, texnik terminlar, standartlashtirish, kodifikatsiya, lingvistik mezonlar, milliylik, xalqaro moslik, davlat til siyosati.

Аннотация. В данной статье вопросы стандартизации узбекской технической терминологии анализируются на основе комплексного и системного подхода. В исследовании лингвистические критерии нормирования терминов – точность, краткость, национальная специфика и международная совместимость – обосновываются как в теоретическом, так и в практическом аспектах. Также освещаются этапы и методы процессов кодификации в терминологии, а также их интеграция с современными электронными ресурсами. В статье анализируется роль государственной языковой политики в упорядочении технических терминов, а также значение нормативно-правовых документов и деятельности терминологических комиссий. На примере таких отраслей, как энергетика, информатика, электротехника, механика и робототехника, показан опыт стандартизации. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для устойчивого развития технической терминологии, совершенствования научно-технической коммуникации и интеграции национальной терминологической системы в международное научное пространство.

Ключевые слова: терминология, технические термины, стандартизация, кодификация, лингвистические критерии, национальная специфика, международная совместимость, государственная языковая политика.

Abstract. This article analyzes the issues of standardizing Uzbek technical terminology based on a comprehensive and systematic approach. The study substantiates the linguistic criteria for term normalization – accuracy, brevity, national specificity, and international compatibility – from both theoretical and practical perspectives. It also examines the stages and methods of codification processes in terminology and their integration with modern electronic resources. The article analyzes the role of state language policy in regulating technical terms, as well as the significance of regulatory legal documents and the activities of terminological commissions. The experience of standardization is demonstrated through examples from fields such as energy, informatics, electrical engineering, mechanics, and robotics. The results of the study have significant scientific and practical importance for the sustainable development of technical terminology, the improvement of scientific and technical communication, and the integration of the national terminological system into the international scientific community.

Keywords: terminology, technical terms, standardization, codification, linguistic criteria, national specificity, international compatibility, state language policy.

Kirish. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti bevosita terminologiyaning rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir. Har bir yangi ilmiy kashfiyot yoki texnologik yangilik muayyan tushunchani nomlash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Shu bois texnik terminologiya nafaqat tilning leksik boyligi, balki ilmiy tafakkurning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida texnik terminlarni standartlashtirish masalasi mustaqillik davrida alohida dolzarblik kasb etib, davlat til siyosati, normativ hujjatlar va terminologik tadqiqotlar markaziga aylandi.

Adabiyotlar tahlili. Maqolaning asosiy maqsadi o‘zbek texnik terminlarini standartlashtirishning ilmiy-metodik asoslarini yoritish, lingvistik mezonlar va kodifikatsiya jarayonlarini tizimli tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda klassik terminologiya nazariyasi (D.S.Lotte, V.P.Danilenko) hamda o‘zbek terminologiya maktabi vakillari (H.Dadaboyev, A.Madvaliyev) qarashlari uyg‘unlikda o‘rganiladi.

Texnik terminlarni standartlashtirish jarayonida aniqlik, qisqalik, milliylik va xalqaro moslik asosiy lingvistik mezonlar sifatida e’tirof etiladi. D.S.Lotte termini tushunchalar tizimining tarkibiy elementi sifatida talqin qilib, uning aniqligi aynan shu tizimdagi o‘rni bilan belgilanishini ta’kidlaydi.

Aniqlik mezoni terminning bir ma’noiligidini, tushunchaning aniq chegaralanishini ta’minlaydi. H.Dadaboyev terminologiyada ko‘p ma’noilik va sinonimiyaning ilmiy muloqotga salbiy ta’sirini ko‘rsatib, termin-tushuncha mosligi buzilishi terminologik tizimni beqarorlashtirishini qayd etadi.

Qisqalik (iqtisodiylik) mezoni terminning ixcham va qulay shaklda bo‘lishini talab etadi. A.Madvaliyev fikricha, haddan tashqari uzun terminlar ilmiy matnning mantiqiy izchilligini susaytiradi va qabul qilishni qiyinlashtiradi.

Milliylik mezoni terminlarning o‘zbek adabiy tili fonetik va morfologik me’yorlariga mos holda shakllanishini ta’minlaydi. Milliy terminlar ilmiy matnning tushunarligini oshiradi va terminologiyaning umumxalq tiliga yaqinlashuviga xizmat qiladi. Xalqaro moslik esa terminlarning jahon ilmiy-texnik makonida qabul qilingan tushunchalar bilan uyg‘unlashuvini nazarda tutadi. Bu mezon tarjima, qiyosiy tahlil va ko‘p tilli ilmiy muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kodifikatsiya terminlarning tanlanishi, tizimlashtirilishi va normativ manbalarda mustahkamlanishi jarayonidir. Bu jarayon terminologik tizimga barqarorlik va izchillik olib kiradi. Lotte kodifikatsiyani terminologik faoliyatning muhim bosqichi sifatida baholab, uni terminlarning ijtimoiy hayotga kirib borish mexanizmi deb hisoblaydi.

Zamonaviy kodifikatsiya jarayonlari korpus lingvistikasi, elektron lug‘atlar va terminologik ma’lumotlar bazalariga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Sh. Qulbulov elektron terminologik resurslar termin aniqligini ta’minlashda ta’rif–kontekst–soha uchligini muhim deb hisoblaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o'zbek texnik terminologiyasini o'rganishda kompleks va tizimli yondashuv qo'llanildi. Terminologiya nazariyasiga oid ilmiy manbalar tahlil qilinib, lingvistik tahlil usullari asosida texnik terminlarning semantik va morfologik xususiyatlari o'rganildi. Energetika, informatika, elektrotexnika, mexanika va robototexnika sohalaridagi terminlar qiyosiy va tavsifiy tahlil asosida baholandi. Shuningdek, terminologik kodifikatsiya jarayonini aniqlashda tizimli-tasnifiy yondashuvdan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Kodifikatsiya jarayonida sinonim va variant terminlarni boshqarish muhim vazifa sanaladi. Kulebakin texnika sohalarida ko'p ma'nolilikni mutlaqo cheklash zarurligini ta'kidlab, yangi termin yaratishda mavjud terminologik tizim hisobga olinishi lozimligini qayd etadi.

Terminologik kodifikatsiya jarayonining bosqichlari va ularning mazmuni

Bosqich	Bosqich nomi	Asosiy vazifalar	Ilmiy-metodologik ahamiyati
A	Preparatsion bosqich: soha va vazifa aniqlash	Kodifikatsiya loyihasining maqsadi, qamrovi va talabgori aniqlanadi; mavjud terminologik resurslar (lug'atlar, standartlar, hujjatlar) inventarizatsiya qilinadi.	Kodifikatsiya jarayonining konseptual asoslarini belgilaydi, ishni tizimli va rejalashtirilgan holda boshlash imkonini beradi.
B	Terminning aniqlanishi: ekstraksiya va korpus-asosida aniqlash	Ilmiy va texnik matnlardan terminlarni ajratib olish; frekvensiya, konkordans va kontekst tahlili asosida nomzod terminlarni aniqlash.	Terminlarni subyektiv emas, empirik asosda tanlashni ta'minlaydi; real qo'llanishga tayangan kodifikatsiyani shakllantiradi.
C	Morfo-semantik tahlil va tasniflash	Terminlarning yasash modeli, semantik tarkibi va terminologik tizimdagi o'rni aniqlanadi; giponim-giperonim munosabatlari belgilanadi.	Terminologik tizimning ichki iyerarxiyasini yaratadi, tezaurus va ontologiya modellariga asos bo'ladi.
D	Tanlash va standartlashtirish (ekspert bahosi)	Nomzod terminlar aniqlik, qisqalik, milliylik va xalqaro moslik mezonlari asosida baholanadi; normativ shakl tanlanadi.	Ilmiy asoslangan va me'yoriy terminlarni belgilaydi; terminologik beqarorlik va variantlilikni kamaytiradi.
E	Rasmiylashtirish va publikasiyalash	Terminlar milliy standartlar, terminologik lug'atlar, elektron bazalar va maxsus formatlarda rasmiylashtiriladi.	Terminlarning rasmiy maqomini mustahkamlaydi va ularni amaliy muomalaga kiritadi.
F	Monitoring va yangilash (uzluksizlik)	Terminlarning real qo'llanishi kuzatiladi; yangi tushunchalar va semantik siljishlar asosida tizim yangilanadi.	Terminologik tizimning dolzarbligi va barqarorligini ta'minlaydi, kodifikatsiyani dinamik jarayon sifatida qo'llab-quvvatlaydi.

Mazkur jadval terminologik kodifikatsiya jarayonining izchil va mantiqiy bosqichlarini tizimli holda aks ettiradi. Har bir bosqich o'ziga xos vazifani bajarib, keyingi

bosqich uchun metodologik asos yaratadi. Jadval kodifikatsiyani bir martalik harakat emas, balki uzluksiz va dinamik ilmiy-amaliy jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Terminologiyada kodifikatsiya jarayonlari va usullari terminologik tizimning ilmiy asoslangan, me'yoriy va barqaror shakllanishini ta'minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Kodifikatsiya terminlarni tasodifiy qo'llanish darajasidan chiqarib, ularni tushunchalar tizimi bilan uzviy bog'langan, normativ birliklar sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois terminologik faoliyatda kodifikatsiya nafaqat yakuniy bosqich, balki terminologiya rivojining ajralmas va uzluksiz jarayoni sifatida qaraladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, terminologik kodifikatsiya izchil va mantiqiy ketma-ketlikda amalga oshiriladigan bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Preparatsion bosqichda soha, vazifa va mavjud terminologik resurslarni aniqlash kodifikatsiyaning konseptual poydevorini yaratadi. Bu bosqichda olib borilgan ishlar keyingi qarorlarning ilmiy asoslangan bo'lishini ta'minlaydi. Terminning aniqlanishi va korpus-asosida ekstraksiya bosqichi esa terminlarni real ilmiy va professional muomaladan ajratib olish orqali kodifikatsiyaning empirik poydevorini shakllantiradi.

Davlat til siyosati texnik terminologiyani standartlashtirishda muhim institutsional omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida davlat tili haqidagi qonunlar, terminologik komissiyalar va normativ hujjatlar terminlarni me'yorlashtirish jarayonini muvofiqlashtiradi.

Davlat miqyosida tasdiqlangan terminologik lug'atlar va standartlar ilmiy-texnik hujjatlarda terminlarning yagona qo'llanishini ta'minlaydi. Bu holat ilmiy axborot almashinuvining samaradorligini oshiradi va terminologik beqarorlikni kamaytiradi.

Energetika, informatika, elektrotexnika, mexanika va robototexnika sohalarida terminologik standartlashtirish faol olib borilmoqda. Masalan, informatika sohasida "interfeys", "server", "algoritm" kabi terminlar xalqaro moslik saqlangan holda o'zbek tiliga moslashtirilgan.

Energetika va elektrotexnika sohalarida esa milliy va xalqaro terminlarning uyg'unligi asosida standartlashtirish tajribasi shakllanmoqda. Bu jarayon texnik hujjatlarning aniqligi va tushunarlilikini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro terminologik tashkilotlar (ISO, IEC) tomonidan ishlab chiqilgan standartlar milliy terminologiyalar uchun muhim metodik manba hisoblanadi. Xalqaro tajribaga tayangan holda ishlab chiqilgan terminlar milliy til tizimiga moslashtirilgan taqdirdagina barqaror bo'ladi.

O'zbek texnik terminlarini standartlashtirish lingvistik, metodik va institutsional omillar uyg'unligini talab etuvchi murakkab jarayondir. Aniqlik, qisqalik, milliylik va xalqaro moslik mezonlari terminologik tizimning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. Kodifikatsiya jarayonlari esa terminlarni normativ darajaga ko'tarib, ularning amaliy qo'llanishini barqarorlashtiradi. Davlat til siyosati va xalqaro tajriba uyg'unligi asosida

olib borilgan standartlashtirish ishlari o'zbek texnik terminologiyasining raqobatbardosh va zamonaviy rivojini ta'minlaydi.

Xulosa. Texnik terminlarni standartlashtirish jarayoni lingvistik jihatdan puxta asoslangan mezonlarga tayanishi lozim bo'lib, bu jarayonda aniqlik, qisqalik, milliylik va xalqaro moslik asosiy talablar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu mezonlar terminologik tizimning barqarorligi, ilmiy muloqotning samaradorligi hamda texnik axborotning to'g'ri va izchil uzatilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lotte D. S. Osnovy terminologii. – M.: Nauka, 1961. [45–112-b.]
2. Danilenko V. P. Russkaya terminologiya. – M.: Nauka, 1977. [83–145-b.]
3. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2020. [45–160-b.]
4. Madvaliyev A. Ilmiy nutq madaniyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. [58–140-b.]
5. Qulbulov Sh. Elektron lug'atchilik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2019. [90–125-b.]
6. Qodirbekova D. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi. – Toshkent, 2021. [60–98-b.]
7. Usmonov S. Elektrotexnik terminlar izohli lug'ati. – Toshkent, 2018. [70–120-b.]
8. ISO 704: Terminology work – Principles and methods. – Geneva, 2009.
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:roLk4NBRz8UC
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:qjMakFHDy7sC
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
13. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
15. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:Se3iqnhoufwC